

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

JADID PEDAGOGIKASI VOSITASIDA TALABALARING MA'NAVIY - AXLOQIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Maqsudov Ulug‘ bek Qurbonovich

Farg‘ ona davlat universiteti pedagogika kafedrasи v.b. dotsenti, p.f.b.f.d(PhD)

Abdullayev Ro‘ zimuxammad Akramjon o‘ g‘ li

Farg‘ ona davlat universiteti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada jadid pedagogikasi vositasida talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish hamda ularda jadid pedagogikasining ahamiyati hamda uning dolzarbliги haqida ma'lumotlar ochib berilgan.

Kalit so‘ zlar: Jadid adabiyoti, kompetentlik, tarbiya, axloq, pedagogik meros, umuminsoniy sifatlar.

Ключевые слова: джадидская литература, компетентность, образование, этика, педагогическое наследие, общечеловеческие качества.

Abstract: After independence, the issue of strengthening the spiritual foundations of our country, preserving our national values, traditions and customs, instilling love for the motherland and loyalty to independence in the hearts and minds of our people, especially the young generation, is becoming more and more important today. is gaining actual importance. In order to solve this task, higher educational institutions, including higher educational institutions, should look at the history, culture, and spirituality of our nation in a new way, study and evaluate it from today's point of view, and educate students' spiritual qualities from them. It is appropriate to use it in development. As our first president said, "A nation that does not know its history and forgets its past and day has no future." The history of education has a rich spiritual heritage, and its inclusion in the study and education consumption, as shown in the national model of personnel training, is of great importance in the formation of spiritual qualities in the education and development of a well-rounded person. is enough.





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Key words: Jadid literature, competence, education, ethics, pedagogical heritage, universal human qualities.

Introduction.

"Ma'naviyat - insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt saodat bo'lmaydi. Nafaqat ko'hma tarix balki yangi tarix ham buning ko'plab misollarini beradi". Buyuk donishmandlar Suqrot, Aristotel, Diogen, Seneka, Abu Nasr Farobi, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Alisher Navoiy, Nasafiy va boshqalarning fikricha ma'naviylik insonlarning o'zaro munosabatlaridaadolat, ezgulik, poklik, o'zaro yordam, mehr-muruvvat, o'zaro tushunish kabibi sifatlarining yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Jadid pedagogikasining o'ziga xos ma'naviy pedagogik merosi qolgan. Ularning didaktik asarlarida ifodalangan saxovatlilik, halollik, insonparvarlik, do'stlik, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, sabr qanoatlilik, hushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik,adolatlilik, sadoqatlilik, jonajon o'lkaga muhabbat, ijodkorlik, zukkolik, poklik, qanoatlilik, to'g'rilik hamda milliy va umuminsoniy sifatlarini har bir yoshning ongiga singdirish, ma'naviy ta'lim-tarbiyaning asosiy talablaridan hisoblanadi.

Material and Methods.

Jadid pedagogik merosi vositasida talabalarning ma'naviy, axloqiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlantirish dolzarb masaladir. S. Nishonova "Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol insonni tarbiyasi" ga doir tadqiqot ishida Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya masalalari qomusiy olimlar ilmiy merosida komil inson tarbiyasi o'sha davr ta'limiy-axloqiy asarlarida barkamol inson tarbiyasi masalalarini yoritib beradi. Olimning ta'kidlashicha Sharq uyg'onish davri ta'limiy-axloqiy asarlarida barkamol shaxs tarbiyasida aqliy, axloqiy, jismoniy, nafosat tarbiyasi asosiy me'zon bo'lib kelgan. [5] Ana shu me'zonlarni tarbiyalashda inson egallashi zarur bo'lgan hislatlar ham alohida ajratilib ko'rsatiladi. Shaxsni har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo'lib kelgan. Ajdodlarimiz ma'rifat va madaniyatni qanday qilib yosh avlodga o'rnatish, ularni komillikka yetaklash yo'llari, qonun va qoidalarini izlaganlar. [6] Darhaqiqat, insonning ma'rifiy va ma'naviy komillikka erishishi bir qancha omillarga bog'liq va bu omillardan biri va asosiysi tarbiyadir. Inson tarbiyasiga oid g'oyalar, qoida va qonunlar

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

dastlab adabiyotimizning go‘ zal namunalari bo‘ lgan qissalarda, pandnomalarda, yozma yodgorliklarda hamda hadislarda asoslab berilgan. [4]

Hadislarimizda “ Farzandlaringizni izzatikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz” kabi g‘ oyalarining ilgari surilishi hadis ilmida ham tarbiyaning inson kamoloti uchun naqadar zarurligi, ota-onasiga, oila, qarindoshlar hamjihatligi, ilm, bilimdonlik, mehnatsevarlik, vatanga cheksiz muhabbat kabi sifatlar ulug‘ langanini ko‘ rsatadi. Inson ongi, hissiyoti va irodasiga kuchli darajada ta’ sir ko‘ rsatuvchi vositalardan biri kitobdir, to‘ g‘ rirog‘ i adabiyotdir.[7]

Kitobxonning Abdulla Qodiriy romanlarini sevib o‘ qishining sababi shundaki, ularda milliy tafakkur shu’ lalari balqib turadi. Butun bu asarlarni o‘ qish davomida o‘ quvchining ruhiy olami o‘ zgaradi, insoniyatga xos bo‘ lgan yaxshi fazilatlar bilan uchrashadi, ba’ zida esa bu fazilatlarning xira tortganligi uni iztirobga soladi. “ O‘ tkan kunlar” romanini o‘ qish jarayonida o‘ quvchi o‘ zbek millatiga xos odob-axloq ko‘ rinishlarining guvohi bo‘ ladi, muomala madaniyatining turli qirralariga duch keladi, ota va farzand munosabatlaridagi o‘ ziga xos nozik jihatlarni anglaydi. “ Mehrobdan chayon” romanini o‘ qish jarayonida o‘ quvchi har xil kayfiyatga tushadi:bu dunyoning adolatsizligidan bir xafa bo‘ lsa, asar qahramoni Anvarning erishgan kamolotidan bir xursand bo‘ ladi, bir mulohaza qiladi oilaviy munosabatlardagi sharqona odob xususida, bir o‘ yga toladi davlat boshqaruvidagi adolatsizliklarni o‘ ylab. [3] Shuningdek, o‘ quvchi asarda do‘ stga sadoqat, muhabbatda vafo kabi tushunchalarning mazmunmohiyatini chiroyli satrlarda, ta’ sirchan tasvirlarda ko‘ ra oladi.O‘ z asarlarida o‘ zini qiyayotgan muammolarni, qalbini og‘ ritayotgan og‘ riqlarni qalamga olishga odatlangan Cho‘ lponning “ Kecha va kunduz” romani ham o‘ quvchi ma’ naviyatini yuksaltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mustamlaka zulmidan ezilayotgan xalqning nochor ahvolini, jamiyat tanazzulini ochiq-oydin yoritib beruvchi ushbu asar bilan tanishar ekan, kitobxon asar voqealari asosida inson qadri naqadar arzon ekanligi, ayniqsa, ayol zotining jamiyatda hech qanday o‘ rni mavjud emasligi, jaholat botqog‘ iga botgan ota ochko‘ zligi sabab hali voyaga yetmagan Zebining aybsiz aybdorga aylanishi, hech bir jinoyat qilmagani holda gunohkorga hisoblanishi, aybdor sifatida surgun qilinishi kitobxon qalbini nafratga to‘ ldiradi, ijtimoiy tengsizlik, davlat boshqaruvidagi adolatsizlik kabi asarning mazmun-mohiyatini tashkil etuvchi voqe-hodisalar tasviri uni o‘ ylashga majbur qiladi. Jadid adabiyotinig otasi hisoblangan Mahmudxo‘ ja Behbudiylar o‘ zining “ Padarkush” nomli bitigida





Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ma' rifatning inson hayoti, insoniyat taqdiri uchun qanchalik katta ahamiyat kasb etishini namoyish etgan.

Results and Discussion.

Milliy va insoniy qadriyatlamli anglashda ma' rifatli bo' lish zarurligini alohida ta' kidlagan. Asardagi Dramadagi Boy, Toshmurod, Domullo, Ziyoli kabi obrazlar orqali o' sha davrning asosiy muammosini ko' tarib chiqqan, "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo' lur" degan fikrlari isbotini topgan bu asari orqali Behbudiylar kitobxonni va tomoshabinni jaholatdan yiroqlashishga chaqirgan, barchani birdek ilm olishga chorlagan.

Bugungi kun o' quvchisi uchun jo' n va sodda tuyulgan bu asar orqali o' quvchi o' z farzandining taqdiriga befarq, har narsani faqat pul, boylik bilan o' Ichaydigan ota va uning taqdiri, bilimsizligi va tarbiyasizligi tufayli o' z otasining qotiliga aylangan o' g' il, farzandiga to' gri tarbiya bermagan, natijada taqdir sinovlari oldida nochor qolgan onaning holati o' quvchini mulohazaga undaydi. [2]

Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan "Turkiy Guliston yoxud Axloq" asarini o' rghanish orqali har bir o' quvchi kitobxon o' zida mavjud sifat-xislatlarni atroflicha mushohada etadi, yaxshini yomondan, oqni qoradan farqlashni o' rghanadi. Asarda keltirilgan fikrlar, yaxshi va yomon xulqlar tavsifi, fikrlar isboti sifatida keltirilgan kichik hikoyalar o' quvchilarning kelgusida ma' naviyatli shaxs bo' lib voyaga yetishlarida muhim rol o' ynaydi. Faqat bu ma' lumotlar o' quvchi shaxsining yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib taqdim etilgandagina ijobiy samara beradi.[1]

O' z davrida jadid adabiyotini go' zal she' rlar bilan boyitgan, ma' rifatparvar pedagog sifatida boshlang' ich maktablar uchun "Yengil adabiyot", "O' qish kitobi", "Qiroat kitobi" singari darsliklar yozgan Hamza Hakimzoda Niyoziy ularda o' qish, matn ustida mustaqil ishslash, sinfdan tashqari o' qish ishlariga alohida e' tibor bergen. Hamza o' z darsliklarida badiiy so' z ko' magida o' quvchilaming ma' rifiy va ma' naviy yetukligini ta' minlashni nazarda tutgan. Shu bilan birga Hamza yaxshigina lirik shoir ham bo' lganligini hisobga olgan holda o' quvchilarga adabiyot darslarida uning aruz vaznida yozilgan g' azallarini berib borish ham foydadan holi bo' maydi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Conclusion:

Bugungi kunda adabiyot ta'limining yetakchi xususiyatlarini o'quvchi ma'naviyatini yuksaltirish, ularning mustaqil fikrlash salohiyatini rivojlantirish, adabiyotga mehrini, hurmatini oshirish, badiiy asarlar vositasida o'quvchilarni o'zga odamlar qalbini anglashga o'rgatish, o'zgalar dardini anglashga yo'llash kabilar tashkil etmoqda. Milliy dastur asosida yaratilayotgan adabiyot darsliklarida xuddi shu jihatlar e'tiborga olinayotgani quvonarli hol, albatta. Adabiy asar matnini tahlil qilish orqali o'quvchi borliq-olamni o'z tuyg'ulari, fikr-mulohazalari orqali tanishi va anglashi lozimligi yangilangan pedagogik tafakkur tamoyiliga aylandi. Chunki ana shunday yo'l bilangina san'at asarlariga nisbatan o'quvchilarning nuqtai nazari, munosabati va muhabbatini shakllantirish mumkin. Bu borada jadid adabiyoti vakillari ijodidan unumli foydalanish zarur. Ta' lim-tarbiya olish, ilm vositasida komillikka erishish istagida bo'lgan har bir o'quvchi uchun jadid adabiyoti muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Reference:

1. Sharafuddinov O. Cho'lonni anglash. Toshkent 1998. [1]
2. Normatov U. O'tkan kunlar hayrati Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Toshkent O'zbekiston, 2008.[2]
3. Qirg'izova O. Jadid adabiyotining bugungi kunda tutgan o'rni. Namangan. 2020[3]
4. Axmedova Malohat Ergashevna . Pedagogika nazariyasi va tarixi (pedagogika tarixi)[4]
5. Dolimov U. Jadid pedagogikasi. Toshkent-2007 [5]
6. JADID MA'RIFATPARVARLIK HARAKATINING G'OYAVIY ASOSLARI. "Jadid ma'rifatparvarlarining milliy ta'lim, matbuot, adabiyot va san'atni rivojlantirishga qo'shgan hissasi va uning Milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati" mavzuidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari 2016 yil 15 aprel'. "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi Toshkent-2016. [6]
7. www.ziyouz.com kutubxonasi[7]
8. Kurbanovich, M. U. (2020). Pedagogical tendencies of the development of social activity skills of primary school pupils through the use of folklore. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 562-566.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- 
9. Makhmutovna, T. K., & Ibragimovna, T. I. (2020). Specific features of the pedagogical process focused on increasing the social activity of youth. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 9(6), 165-171.
 10. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 407-412.
 11. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 394-396).
 12. Maksudov, U. K. (2022). Development of Social Activity of Primary School Students through Folk Oral Creativity. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 2(5), 54-57.
 13. Maqsudov, U. B. Q., & Qosimova, G. E. Q. (2022). TALABALARDA MEDIA SAVODXONLIKNI OSHIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 988-995.
 14. Maqsudov, U. B. Q., Eraliyev, Y. L., & Qosimova, G. (2022). TA' LIMDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 973-980.
 15. Maqsudov, U., & Eraliyev, Y. (2022). PEDAGOGIKA FANLARINI O 'QITISHDA MULTIMEDIALI VOSITALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(12), 68-73.
 16. Muhammadjonovna, U. N., Makhmutovna, T. H., & Kurbonovich, M. U. (2020). IPROVING THE MECHANISM OF INCREASING THE SOCIAL ACTIVITY OF YOUNG PEOPLE IN THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC AND LEGAL SOCIETY. JCR, 7(12), 3133-3139.
 17. SAIDKULOVICH, S. B., & UGLI, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 8(1), 75-77.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th June, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

18. Shermukhammadov, B. (2022). Creativity of a Teacher in an Innovative Educational Environment. *Journal of Higher Education Theory and Practice*, 22(12), 127.
19. Urinova, N. M., & Abdullaeva, N. (2021). Opportunities to use project-based teaching technology in the development of students' research competence. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2344-2348.
20. Urinova, N., & Abdullaeva, N. (2020). Opportunities for formulating research skills for higher education students. *Молодой ученый*, (11), 193-195.
21. Ахмедов, Б. А. (2020). Сидиков Баҳтиёр Сайдкулович, Джалалов Баҳромжон Бегмурзаевич МОДЕРНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАНИЯ-ОСНОВНОЙ ФАКТОР В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ. *Academy*, 9, 60.
22. Сидиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). OBJECTIVES OF THE YOUTH ACTIVITY BY TEACHING TRAINING. *Учёный XXI века*, (6-2 (19)), 41-44.
23. Сидиков, Б. С., & Джалалов, Б. Б. (2016). ЗАДАЧИ РАЗВИТИЯ АКТИВНОСТИ МОЛОДЁЖИ С ПОМОЩЬЮ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ. *Ученый XXI века*, (6-2).
24. Уринова, Н. М., & Байджанов, Б. Х. (2016). Социально-педагогические особенности подготовки будущих учителей к воспитательной работе. *Учёный XXI века*, (4-2 (17)), 21-24.
25. Шермухаммадов, Б. (2012). Использование различных методов, форм и средств в воспитании молодежи. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 80-83.